



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




№7(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 42 sahifa,
13-iyul, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Woosyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Bolalik davridagi autizmning turli shakllarini differensial tashxislash	10
<i>Saydaliyeva Xojiya Abduljalil qizi</i>	
Autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishda qo'llaniladigan korreksion ish tamoyillari	14
<i>Karimova Zulfiya Abduraxmanovna, Saydaliyeva Xojiya Abduljalil qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda axborot iste'mol madaniyatini rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslari.....	19
<i>Dadonova Aziza Tulkunovna</i>	
Ilk o'spirinlik yoshidagi o'quvchilarning o'z-o'ziga bo'lgan munosabatini psixologik tahlili.....	23
<i>Mamaradjabova Bog'zoda Abdilxakimovna, Panjiyeva Nargiza Botirovna</i>	
Oliy ta'lim tizimida muammoli o'qitish texnologiyasi	30
<i>Tuksanova Zilola Izatulloevna</i>	
Shahar va qishloq yuqori sinf o'quvchilarida irodaviy sifatlarining qiyosiy tahlili	35
<i>Mamaradjabova Bog'zoda Abdilxakimovna, Panjiyeva Nargiza Botirovna</i>	

OLIIY TA'LIM TIZIMIDA MUAMMOLI O'QITISH TEKNOLOGIYASI

Tuksanova Zilola Izatulloevna

Buxoro davlat universiteti katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada oliy ta'lim tizimida, xususan fizika fanini o'qitishda muammoli ta'lim texnologiyalarini qo'llashning ahamiyati va metodik asoslari yoritilgan. Zamonaviy ta'lim sharoitida talabalarning mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish hamda kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish dolzarb masala ekanligi asoslangan. Muammoli vaziyatlarni yaratish bosqichlari, M.I. Maxmutov talqinidagi muammoli ta'lim darajalari va ijodiy faoliyat turlari tahlil qilingan. Maqola ta'lim jarayoniga innovatsion va tadqiqotchilik yondashuvlarini joriy etish orqali ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Oliy ta'lim, muammoli ta'lim, fizika o'qitish, muammoli vaziyat, mustaqil fikrlash, kreativlik, innovatsion texnologiyalar, ta'lim samaradorligi, ijodiy faollik.

Abstract: The article examines the significance and methodological foundations of applying problem-based learning (PBL) technology in the higher education system, specifically in teaching physics. It substantiates the relevance of developing students' independent, critical, and creative thinking, as well as forming professional competencies within the modern educational environment. The stages of creating problem situations, the levels of problem-based learning according to M.I. Makhmutov, and types of creative activities are analyzed. The article serves to introduce innovative and research-oriented approaches to enhance the overall quality and efficiency of education.

Key words: Higher education, problem-based learning, physics teaching, problem situation, independent thinking, creativity, innovative technologies, educational efficiency, creative activity.

Аннотация: В статье рассматриваются значение и методические основы применения технологии проблемного обучения в системе высшего образования, в частности при обучении физике. Обосновывается актуальность развития у студентов самостоятельного, критического и творческого мышления, а также формирования профессиональных компетенций в условиях современной системы образования. Анализируются этапы создания проблемных ситуаций, уровни проблемного обучения по М.И. Махмудову и виды творческой деятельности. Статья направлена на внедрение инновационных и исследовательских подходов для повышения качества и эффективности образования.

Ключевые слова: Высшее образование, проблемное обучение, обучение физике, проблемная ситуация, самостоятельное мышление, креативность, инновационные технологии, эффективность обучения, творческая активность.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida oliy ta'lim muassasalarida o'qitish sifatini oshirish, talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish hamda ularning mustaqil fikrlash va amaliy faoliyat ko'nikmalarini shakllantirish dolzarb pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, tabiiy fanlar tizimida, xususan fizika fanini o'qitishda nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan innovatsion yondashuvlarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Ilm-fan jadal rivojlanib, jamiyat talablariga mos ravishda yangilanib borayotgan bir davrda yo'lga qo'yilgan sifatli ta'lim vatanparvar, shijoatli, tashabbuskor, ilmga chanqoq yoshlarni kamolotga yetkazish barobarida yurtning porloq istiqbolini yaratishga xizmat qiladi.

Hozirgi vaqtda jamiyatimiz oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri yangicha tafakkur, ijodiy fikrlash, intellektual salohiyatga ega bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalashdir. Fizika fanini o'qitishni takomillashtirish o'quvchilarning faolligini oshirish, ularning aql-zaxirasidagi bilimlar doirasini chuqurlashtirish va yangi imkoniyatlarga tayanuvchi samarali usullarni joriy qilish dolzarb masala bo'lib kelmoqda. Fizika darslarida kreativ texnologiyalardan foydalanish va shu orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlash hamda ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish, shuningdek, tayyorlanayotgan kadrlarning bu sifatlarini rivojlantirish bugungi kunning eng muhim vaziri-



falaridan biridir. Mazkur texnologiya tadqiqotchilik xarakteriga ega bo'lib, u asosan o'quvchilar ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Fikrning ravonligi, uni maqsadga muvofiq yo'llay olish, o'ziga xoslik, qiziquvchanlik, farazlar yaratish qobiliyati kabilar kreativlikni tavsiflaydigan qator individual qobiliyatlardir.

Muammoli ta'lim O'zbekiston pedagogikasida ta'lim jarayonini modernizatsiya qilish, o'quvchilarning mustaqil fikrlashi va ijodiy faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan muhim pedagogik yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Uning rivojlanishi mamlakatdagi siyosiy-ijtimoiy o'zgarishlar, ta'lim tizimi islohotlari va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish jarayonlari bilan chambarchas bog'liq. Hozirgi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida oliy ta'lim tizimida sifatli kadrlar tayyorlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, fizika fanini o'qitish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash ta'lim samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Fizika – tabiiy fanlar ichida muhim o'rin egallab, texnika va texnologiyalarning rivojlanishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli, ushbu fanni o'qitishda an'anaviy usullardan tashqari innovatsion yondashuvlardan foydalanish zarurati ortib bormoqda. Fizika fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar kompleks yondashuv asosida o'rganilib, ularning samaradorligi amaliy jihatdan asoslab berilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Fizika fani tabiat hodisalari, ularning qonuniyatlari va ular orasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganishga xizmat qiluvchi fundamental fanlardan biri bo'lib, u talabalarda ilmiy tafakkur, mantiqiy fikrlash va eksperimental faoliyatni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu sababli fizika fanini o'qitishda an'anaviy yondashuvlar bilan bir qatorda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, jumladan, muammoli ta'lim usullaridan foydalanish zaruriy pedagogik ehtiyoj sifatida yuzaga chiqmoqda.

Muammoli ta'limning nazariy va metodik asoslari xorijiy hamda mahalliy olimlarning ilmiy izlanishlarida keng yoritilgan. Jumladan, M.I. Maxmutov muammoli ta'limni o'quvchilarning mustaqil fikrlashi va ijodiy izlanish faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik jarayon sifatida tavsiflaydi. Uning fikricha, o'qituvchi tomonidan muammoli vaziyatning yaratilishi o'quvchini tayyor bilimlarni o'zlashtirishdan ko'ra, muammoning yechimini mustaqil izlashga, farazlar ilgari surishga va ilmiy xulosalar chiqarishga undaydi. Olim muammoli ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilish faolligi bosqichma-bosqich rivojlanishini alohida ta'kidlaydi.

L.S. Shulman o'qituvchining pedagogik mazmuniy bilimi konsepsiyasini ishlab chiqib, fan mazmunini samarali o'qitishda predmet bilimlari bilan pedagogik metodlarning o'zaro uyg'unligini muhim deb hisoblaydi. Ushbu yondashuvga ko'ra, fizika o'qituvchisi ilmiy tushuncha va qonuniyatlarni talabalarga tayyor shaklda yetkazish bilan cheklanmasdan, ularni muammoli savollar, tajribalar va mantiqiy topshiriqlar orqali mustaqil xulosa chiqarishga yo'naltirishi lozim. Bu esa fizika fanini o'qitishda muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning metodik ahamiyatini yanada oshiradi.

Mahalliy olim S.Q. Qahhorov umumiy o'rta ta'lim maktablarida fizika o'qitishni davriy tashkil etish texnologiyasini tadqiq qilib, ta'lim jarayonida fizik masalalar, tajribalar va muammoli topshiriqlardan tizimli foydalanish zarurligini asoslagan. Olimning tadqiqotlarida o'quvchilarning bilimlarni bosqichma-bosqich o'zlashtirishi, nazariy bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo'llashi va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Mazkur qarashlar fizika ta'limida muammoli vaziyatlardan foydalanishning ilmiy-metodik asoslarini belgilashda muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, E.S. Nazarov va Z.I. Tuksanovalarning tadqiqotlarida ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish, o'quv-tarbiya jarayoniga zamonaviy shakl va usullarni joriy etish hamda o'quvchilarning faolligini oshirish masalalari yoritilgan. Tadqiqotchilar ta'lim jarayonining samaradorligi o'qituvchining innovatsion metodlardan maqsadli foydalanishi, o'quvchilarni mustaqil izlanishga jalb qilishi va darslarda ijodiy muhit yaratishga bog'liqligini qayd etadilar.

Fizikani o'rganishda masalalar yechish muhim ekanligini nazarga olib, ko'pchilik o'qituvchilar masalalar va, ayniqsa, qiyin masalalar qancha ko'p yechilsa, shuncha yaxshi, degan prinsipda ish tutadilar. Biroq masalalarning sonini ko'paytirishning o'zi ta'lim samaradorligini to'liq ta'minlamaydi. Masalalar talabalarda muammoli vaziyat yaratishi, ularni kuzatish, tahlil qilish, taqqoslash, faraz ilgari surish va ilmiy xulosa chiqarishga yo'naltirishi lozim. Ta'limdagi og'zaki, ko'rsatmali yoki amaliy metodlarning har biri o'quvchi ongida muammoli vaziyat yaratishi mumkin. Shu munosabat bilan pedagogikada muammoli ta'lim haqida ham so'z yuritiladi. Ta'limga muammoli yondashish o'quv dasturlarida, auditoriya mashg'ulotlarida, laboratoriya ishlarida va talabalarning mustaqil faoliyatida o'z ifodasini topishi lozim.

Muammoli ta'lim quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

- bilimlarni muammoli bayon qilish;
- bayonning ayrim bosqichlarida o'quvchilarni izlanishga undash;
- ta'limning tadqiqiy metodidan foydalanish.



Tahlil qilingan ilmiy ishlarda muammoli ta'limning nazariy asoslari, o'quvchilarning mustaqil fikrlash faoliyatini rivojlantirish, innovatsion metodlardan foydalanish va fizik masalalarni yechishning didaktik imkoniyatlari yoritilgan. Biroq oliy ta'lim tizimida fizika fanini o'qitishda muammoli vaziyatlarni nazariy mashg'ulotlar, amaliy topshiriqlar, laboratoriya tajribalari va mustaqil ta'lim jarayoni bilan kompleks ravishda uyg'unlashtirish masalasi yetarlicha tadqiq etilmagan.

Mazkur tadqiqotning yuqoridagi ishlardan farqli jihati shundaki, unda muammoli ta'lim texnologiyalaridan oliy ta'lim tizimida fizika fanini o'qitish jarayonida tizimli foydalanish, talabalarning mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish hamda ularning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish masalalari o'zaro bog'liqlikda o'rganiladi. Shuningdek, muammoli vaziyatlarni yaratish bosqichlari, ularni nazariy va amaliy mashg'ulotlarga tatbiq etish yo'llari hamda ta'lim samaradorligiga ta'siri yoritiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Muammoli ta'lim texnologiyalari asosida ta'lim berish nazariyasining ayrim jihatlari, o'quv jarayonida uni qo'llashga oid metodik tavsiyalar, ularga qo'yiladigan psixologik va metodik talablar, samaradorlik ko'rsatkichlari ishlab chiqilganligiga qaramay, bunda o'ziga xos muammolarni, ya'ni kreativ texnologiyalarning ta'lim jarayonidagi o'rni va vazifasi, o'qituvchining shu sharoitdagi ahamiyatidan tortib, mazkur jarayonni bu texnologiya yordamida boshqarishning xususiyatlari, ta'lim berishni individuallashtirish, tabaqalashtirish bilan bog'liq bo'lgan muammolarni yechishga to'g'ri keladi. Bizning fikrimizcha, quyidagi muammolar hal etilishi talab qilinadi:

- mazkur texnologiyaning didaktik imkoniyatlarini aniqlash;
- o'quvchilarda ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga imkon beruvchi dasturlar tuzish;
- fizika fanining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'limga oid tavsiyalar ishlab chiqish.

Mazkur muammolarning to'laqonli yechimi o'quvchilarga fizikaga oid bilimlarini rivojlantirishga imkoniyat yaratadi. Muammoli ta'lim deganda o'quv materialini o'quvchilar ongiga ilmiy izlanishga o'xshash bilish vazifalari va muammolarini vujudga keltiradigan yo'sinda o'rganish tushuniladi. O'quvchi (talaba)ning fikrlash faoliyatida muammoli vaziyatlar vujudga keladi va ular talaba (o'quvchi)ni obyektiv ravishda izlanishga va mantiqan to'g'ri ilmiy xulosalar chiqarishni o'rganishga da'vat etadi.

Muammoli ta'lim texnologiyasi o'quv jarayonini faol tashkil etish, talabalarda mustaqil bilim olishga bo'lgan ehtiyojni shakllantirish hamda ularni ilmiy izlanish jarayoniga jalb etish orqali samarali natijalarga erishishni ta'minlaydi. Muammoli o'qitish bu takomillashgan o'qitish texnologiyasidir. Ushbu yondashuvning asosiy mohiyati shundan iboratki, ta'lim oluvchilar oldiga muammoli vaziyatlar qo'yiladi va ular ushbu vaziyatlarni tahlil qilish, gipotezalar ilgari surish, tajriba o'tkazish hamda xulosalar chiqarish jarayonida yangi bilim va ko'nikmalarni egallaydilar.

Muammoli o'qitish mazmunida o'qituvchining bayoni o'z xususiyatiga ko'ra o'quvchilar oldiga qandaydir masalani muammo tarzida shakllantirib, o'quvchilarni o'ylash, fikrlash, izlanishga majbur etadigan ta'lim bo'lib, u asosan fikrlarni mantiqiy tahlil qilish va bayon etishga undaydi. Shu ma'noda muammoli o'qitish bilimlarni egallash jarayonida tafakkurga murojaat qilish lozimligini nazarda tutadi. Chunonchi, tafakkur – inson oldida turgan masala va muammolarni fikrlash, ijodiy o'zlashtirishga yo'naltirilgan idrok, sezgilardan tashkil topgan bo'lib, muammoli vaziyat yaratish orqali muammoli yechimga qaratilgan psixologik holatdir (S.L. Rubinshteyn). Bunda muammoli vaziyat insonni fikrlashga, tahlil qilishga, mustaqil ijodiy ishlashga yo'naltiradi va ilmiy bilimlar o'zlashtirilishidagi ziddiyatlarning vujudga kelishi hamda ularni yechish usullarini qayta to'qnashish natijasida hal bo'ladi. Qayta to'qnashish natijasida muammoli masalalarni belgilash usullaridan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, muammoli ta'lim deyilganda:

O'qituvchi rahbarligida muammoli vaziyat yuzaga keltirilib, mazkur muammo o'qituvchi-talabalarning faol mustaqil faoliyati natijasida bilim, ko'nikma va malakalarni ijodiy o'zlashtirish hamda aqliy faoliyatni rivojlantirishga imkon beradigan ta'lim jarayonini tashkil etish nazarda tutiladi.

Shuningdek, muammoli o'qitishning mohiyatini o'qituvchi tomonidan o'quvchi-talabalarning o'quv ishlarida muammoli vaziyatni yuzaga keltirish va o'quv vazifalari, muammolar hamda savollarni hal qilish orqali yangi bilimlarni o'zlashtirish bo'yicha ularning bilish faoliyatini boshqarishni tashkil etish tushuniladi. Muammoli ta'lim vazifalari quyidagilardan iborat deb hisoblaymiz:

- talabalarni mustaqil fikrlashga o'rgatish;
- ijodiy fikrni rivojlantirish;
- o'zlashtirish jarayonining faol bo'lishini ta'minlash;
- muammolarning yechimini topish ko'nikma va malakalarini shakllantirish;



- darsda o'rganiladigan mazmunning murakkab qismini o'zlashtirishda o'qituvchining faoliyati qanday bo'lsa, o'quvchi faoliyatini ham shu darajaga yetkazish muammoli ta'limning asosiy maqsadidir.

Muammoli o'qitishda ta'lim samaradorligining to'rtta asosiy sharti mavjud:

- muammo mazmuniga qarab yetarli qiziqish uyg'otishni ta'minlash;
- o'qituvchi va o'quvchi orasidagi munosabat xayrixohlik ruhida kechishi, ya'ni o'quvchilar tomonidan bildirilgan barcha fikr va farazlar e'tibor va rag'batsiz qolmasligi zarur, muammoni yechishda olingan axborotning o'quvchilar uchun muhimligi;
- muammoni yechishdagi har bir bosqichda paydo bo'ladigan ishlarni bajara olish mumkinligini ta'minlash (ma'lum va noma'lumlar nisbatining maqbulligi).

TAHLIL VA NATIJALAR

Ta'limni yangilash jarayonida pedagogik texnologiya muammolarni to'la amalga oshirishga qodir bo'lgan muammoli ta'lim quyidagi vazifalarni hal etishda amaliy yordam ko'rsatadi:

- a) o'quvchilarni mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatlarini o'stiradi;
- b) ilmiy bilimlarni qo'lga kiritish va amalda qo'llash usullarini o'zlashtirishning imkonini yaratadi.

Muammoli ta'lim zaminida o'quvchilarning ijodiy faoliyati yotadi. Ijodiy faoliyat turlari asosida muammoli ta'limning uch ko'rinishi ajratiladi: nazariy ijodkorlik – o'quvchilarning o'zlari uchun yangi qoida, qonuniyat, teoremani izlashi, topishi va asoslashi.

Muammoli ta'limning bu ko'rinishi nazariy xarakterdagi ijodiy topshiriqlarni yechish yo'li bilan amal qiladi; amaliy ijodkorlik – o'rganilgan bilimlarni yangi sharoitlarga tatbiq etish usulini egallash.

Muammoli ta'limning bu ko'rinishi amaliy xarakterdagi ijodiy topshiriqlarni yechish yo'li bilan amal qiladi; badiiy ijodkorlik – borliqni badiiy obrazlar vositasida aks ettirishdir. Muammoli ta'limning bu ko'rinishi insho yozish, ma'lum mavzularda erkin ijod etish, rasm chizish, musiqa asari yaratish shaklida amal qiladi.

M.I. Maxmutovning fikricha, muammoli ta'limni dars jarayoniga moslashtirish uchun o'quvchilarga mustaqil ishlash malakalarini rivojlantirmoq kerak. U mustaqil ishlash malakalari qatoriga quyidagilarni kiritadi:

- muammoni anglash;
- muammoni o'z so'zlari bilan aytib bera olish, uni qayta tuzish;
- muammoni hal qila olishga oid farazni qo'ya bilish;
- farazni isbotlash usulini amaliyotga tatbiq eta olish.

M.I. Maxmutov ta'limda o'qituvchi va o'quvchining o'zaro ta'siri xususiyatlaridan kelib chiqib, muammoli ta'limning to'rt xil darajasini belgilaydi:

- o'quvchilarning odatdagi faolligi darajasidagi muammolilik – o'qituvchining tushuntirishi, tavsiyalari asosida qo'yilgan muammoni hal etish;
- chegaralangan faollik darajasidagi muammolilik – nazariy bilimlarni o'qituvchi bayon etadi, o'rganilgan bilimni yangi sharoitga tatbiq etishga oid topshiriqni o'quvchilar mustaqil bajarishadi;
- mustaqil faollik darajasidagi muammolilik – o'quvchi darslik ustida mustaqil ishlab bilimlarni o'zlashtiradi;
- ijodiy faollik darajasidagi muammolilik – bu darajada muammoni o'quvchilarning o'zlari mustaqil tanlashadi va bajarishadi.

Muammoli ta'lim texnologiyalarining qo'llanilishi ta'lim jarayonining samarali kechishini ta'minlaydi va shu bilan birga o'quvchilarning mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. O'quvchilarning faol mustaqil faoliyati natijasida bilim, ko'nikma va malakalarni ijodiy o'zlashtirish hamda aqliy faoliyatni rivojlantirish imkonini beradi.

Shuningdek, muammoli ta'lim, ya'ni muammoli o'qitishning mohiyatini anglagan holda pedagog tomonidan talabalarning o'quv jarayonlari tashkil etilsa, ularning muammolarni, to'siqlarni va vaziyatlarni hal qilish orqali yangi bilimlarni o'zlashtirish jarayonida bilish faoliyatini boshqarish tashkil etiladi. Bu esa bilimlarni o'zlashtirishning ilmiy-tadqiqot usulini yuzaga keltiradi. Pedagog tomonidan muammoli ta'lim texnologiyalarini o'qitish jarayonida maqsadli, samarali qo'llash ta'lim sifatini yaxshilash va samaradorligini oshirishga asos bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, muammoli ta'lim texnologiyasi oliy ta'lim tizimida, xususan, fizika fanini o'qitish jarayonida talabalarning mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Mazkur texnologiya o'quv jarayonini talaba faoliyatiga yo'naltirish, ularning bilimlarni mustaqil izlash, tahlil qilish va amaliyotda qo'llash kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, muammoli vaziyatlar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar talabalarning bilishga bo'lgan qiziqishini oshiradi, mantiqiy tafakkurini rivojlantiradi hamda kasbiy kompetensiyalarini mustahkamlaydi.

Tahlillar natijasida muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanishda ayrim muammolar ham mavjudligi aniqlandi. Jumladan, ayrim o'qituvchilarning muammoli ta'lim metodlarini qo'llash bo'yicha metodik tayyorgarligi yetarli emasligi, amaliy mashg'ulotlar uchun zarur didaktik materiallarning cheklanganligi hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash bo'yicha uslubiy ta'minotning to'liq shakllanmaganligi ta'lim samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Shu asosda quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

- oliy ta'lim muassasalarida fizika fanini o'qitishda muammoli ta'lim texnologiyalaridan tizimli va izchil foydalanishni yo'lga qo'yish;
- o'qituvchilarning muammoli ta'lim metodlari bo'yicha kasbiy malakasini muntazam oshirish hamda amaliy seminar-treninglarni tashkil etish;
- muammoli vaziyatlarga asoslangan elektron ta'lim resurslari, virtual laboratoriyalar va metodik qo'llanmalar bazasini kengaytirish;
- talabalarning mustaqil va ijodiy faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan loyiha ishlari, amaliy topshiriqlar va tadqiqot elementlarini o'quv jarayoniga keng joriy etish;
- muammoli ta'lim texnologiyalarining samaradorligini muntazam monitoring qilish va natijalar asosida o'quv jarayonini takomillashtirib borish.

Mazkur taklif va tavsiyalarni amaliyotga tatbiq etish oliy ta'lim tizimida fizika fanini o'qitish sifatini oshirish, talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish hamda ularning mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qahhorov S.Q. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida fizika o'qitishni davriy tashkil etish texnologiyasi. – Buxoro, 2004. – 56-b.
2. OECD. Education at a Glance 2023: OECD Indicators. Paris, France: OECD Publishing, 2023. doi: 10.1787/e13bef63-en.
3. Назаров Э.С., Туксанова З.И. Эффективное использование инновационных технологий в системе образования. Abstracts of IX International Scientific and Practical Conference "SCIENTIFIC ACHIEVEMENTS OF MODERN SOCIETY". Liverpool, United Kingdom, 28–30 April 2020. – Pp. 772–778.
4. L.S. Shulman, "Knowledge and Teaching: Foundations of the New Reform," Harvard Educational Review, vol. 57, no. 1, pp. 1–22, 1987. doi: 10.17763/haer.57.1.j463w79r56455411.
5. G. Steiner-Khamsi and F. Waldow (Eds.), World Yearbook of Education 2012: Policy Borrowing and Lending in Education. London, U.K.: Routledge, 2012. <https://www.routledge.com/9780415596893>
6. [Online]. Available: З.И. Туксанова, Э.С. Назаров. Ўқув-тарбия жараёнига таълимнинг инновацион шакллари ва усуллари жорий этиш. Global Research and Academic Innovations, vol. 5, no. 1, pp. 223–229, 2026. [Online]. <https://imrconf.com/index.php/GRAI/article/view/2199>
7. F. Musayev and J. Yo'ldoshev, "Pedagoglarning ilmiy-uslubiy faoliyatini baholash: mezon va ko'rsatkichlar tizimi," Pedagogika va psixologiya, vol. 3, no. 8, pp. 44–58, 2020. [Online]. Available: https://ru.scribd.com/document/1032845989/Ilmiy-pedagogik-Faoliyatni-Baholash-Tizimini-05-02-2026#google_vignette
8. A. Xoliqov and R. Nazarov, "Ta'lim sifatini baholashning kompleks ko'rsatkichlari tizimi: O'zbekiston tajribasi," Uzluksiz ta'lim, vol. 2, no. 6, pp. 34–49, 2023. [Online]. Available: <https://continuousedu.uz/uz/article/xoliqov-nazarov-2023>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №7(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.